

M.Jo‘rayeva, FDU filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Barotova Sevara Akbarali qizi, FarDU magistranti



“JUDOLIK DIYORI” ROMANIDA TABIAT VA INSON RUHIYATI TASVIRI

<https://zenodo.org/records/19843029>

Annotatsiya: maqolada o‘zbek adibi Murodjon Mansurovning “Judolik diyori” romani haqida fikr yuritiladi. Romandagi tabiat tasviri, qahramonlar ruhiyati, peyzaj va obrazlar ruhiyati paralel holda tahlil etiladi. Qahramon ruhiyatini yoritishda peyzajning o‘rni muhim ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: peyzaj, obraz, xarakter, ruhiyat, parallelizm, detal.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ПРИРОДЫ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ В РОМАНЕ «ЗЕМЛЯ ИУДЫ»

Аннотация: В статье рассматривается роман «Юдолик Дёри» узбекского писателя Муроджона Мансурова. Параллельно анализируются описание природы, психология героев, психология пейзажа и психология образов в романе. Научно обоснована важная роль пейзажа в освещении психологии героя.

Ключевые слова: пейзаж, образ, персонаж, психология, параллелизм, деталь.

THE DEPICTION OF NATURE AND THE HUMAN PSYCHE IN THE NOVEL “THE LAND OF JUDAS”

Abstract: This article examines the novel "Yudolik Döri" by Uzbek writer Murodjon Mansurov. It analyzes the description of nature, the psychology of the characters, the psychology of landscape, and the psychology of imagery in the novel. The important role of landscape in elucidating the character's psychology is scientifically substantiated.

Keywords: landscape, image, character, psychology, parallelism, detail

Kirish

“Obraz” termini rus tilidan olingan bo‘lib, “aks” degan ma‘noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham “obraz” deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so‘zning lug‘aviy ma‘nosi bilan istilohiy ma‘nosi farqlanadi: lug‘aviy ma‘no bilan istilohiy ma‘no orasida tutash nuqtalar bo‘lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma‘noni tushunmog‘i lozim bo‘ladi. Shunga ko‘ra, biz obraz”[2, 103] deganda adabiyot va san‘atning tafakkur shakli bo‘lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.

Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas. Balki tamoman yangi mavjudlik- badiiy borliqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Adabiyotshunoslik fani bir qancha fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Tabiat tasviri badiiy adabiyotning asosiy negizi, chunki tabiat tasviri asar qahramonlari ruhiyati, kayfiyati xarakterini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Peyzaj haqida Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi", T. Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari", H. Umurov "Adabiyot nazariyasi", D. Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari", A. Ulug'ovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kabi darsliklarida peyzaj va uning vazifasi haqida ma'lumot berilgan.

Natija va muhokama

Asarda tabiat manzaralari ya'ni peyzaj juda ko'p keltirilgan. Ular albatta biror badiiy niyat uchun xizmat qilgan. Masalan, "Ishkomda beg'am-betashvish chirildoqlar allaqachon chirillashni boshlab yuborgan edi. Yong'oqzor ortidan pachoq barkashday kemptik oy ko'tarilib kelyapti. Negadir uning yuzi juda ham za'faron edi". Muallif bu tabiat tasvirini bir necha maqsadga xizmat qildirgan. Birinchidan, bu tasvir orqali asar davomida bir ko'ngilsiz berishiga oldindan bir ishora bergan bo'lsa, ikkinchidan, muallif oy tasviri orqali aynan Marg'ubani tasvirlagan desak ham bo'ladi.

"Yo tavba, shuncha bulut qayerda turganakan-u havoyi jahon qachon aynib ulgura qoldi?!... Momaqaldiroq endi Yakkabog' tepasida, xolamgilar tashlab ketgan qo'rg'on ustida gumburladi"[1, 25].

Bu peyzaj orqali ham biz quyidagilarni bilishimiz mumkin, ya'ni bu birdaniga boshlanib ketgan momaqaldiroq o'sha xalqimiz boshiga tushgan musibatlar bo'lsa, aynan endi tashlandiq qo'rg'on ustida gumburlashi o'sha musibat shu qo'rg'on egalarini ham chetlab o'tmagani va ular hammadan ko'ra ham ko'p aziyat chekkanini shu orqali ifodalab beryapti.

Quyidagi peyzajga ahamiyat qarataylik: "Bu o'sha xolamgilarning bog'imizga tutash tashlandiq hovuzlari edi. Gir atrofini baland-baland safsar gullar tutub yotguvchi, ko'klam kelishi-la bir yonini egallagan yolg'iz na'matak nafarmon-nafarmon gullab, tinmagur qurbaqalar allamahalgacha dovur vaqir-vuqur bazmlar qurguvchi hovuz. Undan u yog'i eski anhor o'tgan chakalakzoru xaroba qo'rg'on tomlari valangor, devorlari qor-yomg'irlarda nurab yotgan – biz peshinlarda berkinmashoq o'ynab charchamaguvchi bir joy edi"[1,36].

Bu tasvir orqali asarda juda ko'p takrorlanadigan bu qo'rg'onning tashlandiq qaysidir bir voqea tufayli bu ahvolga tushgani va undagi yolg'iz na'matak tasviri o'sha qo'rg'onidan bir vakil qolgani (Sultonmurod nazarda tutilmoqda), u nafarmon-nafarmon gullab qo'rg'onni avvalgi holiga qaytarishga harakat qilayotganini payqash mumkin. Ya'ni muallif bu tasvir orqali ham asardagi voqea-hodisalar haqida bir ishora bermoqchi bo'lgan.

“Lekin hozir shundoqqina tepalariga qaragan odam bundan ham go‘zal bir manzarani ko‘rar edi. Tomimizga naq bo‘g‘otida ukpardek ochilgan qo‘sh qizg‘aldoq ko‘klam shabadasida bir-biriga chirmashib hilpirayotibdi.

Tomda qiyocq chiqarib boshocq torta boshlagan o‘tlar orasida unda-bunda chuchmomalar ko‘rinadi, lekin qizg‘aldoqlar (boyagi bo‘g‘otdan boshqalari) endi shokila-shokila tugunchalab “o‘g‘ilmi-qiz” o‘ynaydigan bo‘lib yotibdi” [1,45].

Bu tasvirdagi qo‘sh qizg‘aldoqlarning bir-biriga chirmashib turishi ikki qarindosh Haybat aka bilan Sul-tonmurodning quchoqlashib turishiga o‘xshatilgan bo‘lsa ayni shu damda tabiatning bunday chiroyli tasvirlanishi kelajakda bu ikki qarindoshlar juda ko‘p ijobiy ishlar qilishi mumkinligiga bir ishora desak ham xato bo‘lmas.

Asarda hayvonot dunyosi tasviriga ham alohida e‘tibor beriladi. Hayvonot obrazi ham xuddi peyzajdek inson xarakterining u yoki bu qirralarini ochishga xizmat qildiriladi. Masalan, “Izzanind narigi betide chopiq qilayotgan qizlar yo‘l yoqasidagi jiydalarning betida esa, Brazan goh gijinglab bu betida gir aylanar, gir oldingi oyoqlarini osmon barobar ko‘tarib, orqa oyoqlarida tik turib olar edi”. Avvalo, bu o‘rinda otning bu qiliqlari zamirida bir poetik g‘oya bor, shu orqali Haybat Marg‘ubaga: “Men shunday abjirmanki uncha-muncha chavandoz qo‘lga o‘rgata olmaydigan shunday katta otni ham o‘zimga bo‘ysindira olaman, ko‘rib qo‘y” deyayotgandek tuyuladi.

“To‘piqlari bunday oppocq, tanasi qizil jezday yaltiroq peshonasiga yulduz kabi qo‘ngan go‘zal oq xoli g‘oyat yarashiqli Barzan Marg‘u kennoyimnig qo‘lidan bir nimalar kamshimoqda edi. Egarda Haybat akam mag‘rur o‘tiribdi”[1,68].

Bu tasvir orqali esa: “Mana ko‘rdingmi hali men ham shu kabi qo‘lingdan ovqat yeyman” deyayotgandek go‘yo.

Asarda ishtirok etuvchi shaxslar bevosita harakat qiladigan maydon uy-joy tasviri ham muhim g‘oyaviy-kompazitsion vazifani o‘taydi.

Masalan, Akmal o‘risning chorbog‘i tasvirini olaylik:

“... ikkita tepalikning o‘rtasidagi kattakon chakalaksimon bog‘ ekan. Tagiga tangadek oftob tushmaydigan bir chakalakki, bulbullar chax-chaxlab sayrab yotibdi. Gir aylanashiga ikki paxsali devor (uchinchi paxsasi sarxokiga qo‘shilib allaqachon yemirilib bo‘lgan), bir yon devorga tiralib o‘sgan behilar – sariq yung kopdokday g‘uj-g‘uj hosil tugib yotibdi. Bir yog‘ida, Soli aytganday sariq, siyohrang gulobilar. Yana bir yog‘li Bozsuvga tushguncha tolzoru terakzor, tagi esa, maymunjonli chakalakzor...[1,96]

Ammo darvozasi g‘aroyib. Ikkala tavaqasini baravar ochsa, ikkita arava bemalol biri kirib, biri chiqib keta oladi. Shunaqa katta, biror sabzavot omborinikini o‘marib kelganmi, nima balo? Hovlida bir gala chipor tovuqlar babaqxo‘rozlar sollanib yurishibdi. Darvozaning oldidagi yong‘oqning tagisa bitta govmish bilan ikkita g‘unajin kavsh qaytarib yotibdi.

Gulobi tomonga o‘tmasimizdan uzun sigma bog‘loqlik apcharka it akillab yugurub kelib, devorga ikkala oyog‘ini qo‘yganicha irillashga tushdi”.

Bu tasvirni muallif bir necha maqsadga xizmat qildirgan. Birinchidan, kattagina moddiy imkoniyatga ega bo'lgan Akmal o'risnin ro'zg'or oilasi va uning o'zi istiqomat qiladigan sharoitni ko'z oldimizga keltiradi va shu orqali qahramonning hayotiyligini ko'rsatadi, uni dalillaydi, aniqlashtiradi. Ikkinchidan, Akmal o'risning xarakteriga ishora qiladi. Barcha oilalar sodda uylari ham oddiy va hech kimdan qo'rqmaganliklari uchun it boqmaydilar. Akmal o'risning hovlisida esa naq apcharkaday it turishi bu birinchidan uning ko'p nopok ishlar qilgani uchun atrofdagilardan qo'rqishini, ikkinchidan moddiy boylikka hirs qo'ygani, uni yo'qotishdan qo'rqanligiga (aynan mana shu boylik, mansab uchun ham o'z yurtini bosib olgan boshqa qavm egalarining buyurganlarini bajarib ularga yordam beradi) ishoredir.

Asar boshdan oyoq dialog va monolog ustiga qurilgan bo'lib, undagi kompozitsiya elementlarining joylashuvi alohida e'tiborga molik hisoblanadi.

Xulosa

Murodjon Mansurov o'z uslubiga ega ijodkor. "Judolik diyori" romani pentologiya bo'lib, 5 kitobdan iborat. Romanda obrazlar tizimi o'ziga xos tarzda joylashtirilgan. Asar qahramonlari ruhiyatini ochishda tabiat tasviri muhim ahamiyatga egaligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa, Maqsudxo'ja tilidan berilgan peyzaj, nafaqat uning, balki boshqa qahramonlar ruhiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Marg'uba, Bahriddin, Sultonmurod, Haybat, Akmal kabi obrazlari ruhiyatini yoritishda tabiat tasviri, dala, majnuntol, ishkomb, yong'oq kabi tabiatning in'omlari asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mansurov M. "Judolik diyori" T.: Sharq, 2007
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: - Yangi asar avlodi, 2007.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: - Navoiy universiteti, 2018.
4. Mansurov M. "Judolik diyori". T.: - Sharq, 2002. 1-kitob